

Irisova Shahribonu Zayniddinova 2-kurs magistranti, Farg'ona davlat universiteti
Orcid: 99893 152 88 94 e-mail: shahribonuirisova@gmail.com



ABDULLA QAHHOR “O‘JAR” HIKOYASINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

<https://zenodo.org/records/18779985>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qahhor hikoyalarning psixolingvistik xususiyatlari “O‘jar” hikoyasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda obrazlar nutqi, ichki monolog, ekspressiv birliklar, semantik assotsiatsiyalar hamda o‘quvchi ongida yuzaga keladigan psixik jarayonlar yoritiladi. Hikoya matning kognitiv va emotsional ta’siri psixolingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so‘z va iboralar: psixolingvistika, mental leksikon, ichki nutq, assotsiatsiya, kognitiv jarayon, badiiy matn.

PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS OF ABDULLA QAHHOR’S SHORT STORY “O‘JAR”

Annotation: This article presents a psycholinguistic analysis of the short stories of Abdulla Qahhor, based on the example of the story “O‘jar”. The study focuses on the characters’ inner speech, expressive linguistic units, semantic associations, and psychological processes occurring in the reader’s mind. The cognitive and emotional impact of the literary text is analyzed from a psycholinguistic perspective.

Keywords and phrases: psycholinguistics, mental lexicon, inner speech, association, cognitive process, literary text.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗА АБДУЛЛЫ КАХХАРА «УПРЯМЕЦ»

Аннотация: В статье проводится психолингвистический анализ рассказов Абдуллы Каххара на примере рассказа «O‘jar». Особое внимание уделяется внутренней речи персонажей, экспрессивным языковым средствам, семантическим ассоциациям и психологическим процессам, возникающим в сознании читателя. Рассматривается когнитивное и эмоциональное воздействие художественного текста.

Ключевые слова: психолингвистика, ментальный лексикон, внутренняя речь, ассоциация, когнитивный процесс, художественный текст.

Kirish.

Psixolingvistika til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni o‘rganadigan fan sohasi sifatida XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil yo‘nalish sifatida shakllandi. Nutq jarayonlarining psixik asoslari, mental leksikon, ichki nutq, assotsiativ bog‘lanishlar singari masalalar bugungi tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Badiiy matn psixolingvistika uchun muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Chunki badiiy matn faqat lingvistik birliklar majmui emas, balki inson ruhiy holati, hissiyotlari va tafakkur jarayonlarining aksidir. Shu nuqtai nazardan Abdulla Qahhor ijodi o'zbek adabiyotida psixologik chuqurligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada “O‘jar” hikoyasi materiallari asosida badiiy matnning psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Psixolingvistikaning nazariy asoslari L. Vygotskiy, A. R. Luriya, N. Chomsky, W. Levelt kabi olimlar tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Vygotskiy ichki nutqni tafakkur shakli sifatida talqin qilgan bo'lsa, Luriya nutq faoliyatining neyropsixologik mexanizmlarini asoslab bergan. Chomsky generativ grammatika nazariyasi orqali til kompetensiyasi masalasini ilgari surgan. Levelt esa nutq ishlab chiqarish modeli orqali mental jarayonlarni tizimli izohlab bergan.

O'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma, shaxs omili, badiiy matn lingvistikasi va psixologik tasvir masalalari yuzasidan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Badiiy matni psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganish esa hozirgi bosqichda dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Abdulla Qahhor ijodi ko'proq adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan bo'lib, uning asarlarini psixolingvistik aspektida o'rganish nisbatan kam yoritilgan. Shu bois mazkur tadqiqot ilmiy yangilik kasb etadi. Mazkur maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

Psixolingvistik tahlil metodi – til birliklarining ongda aks etishi va nutq faoliyatida namoyon bo'lishini aniqlash;

Kognitiv tahlil – qahramonlar tafakkur modeli va mantiqiy tuzilmasini o'rganish;

Kontekstual tahlil – nutq birliklarini matn kontekstida sharhlash;

Semantik maydon tahlili – markaziy leksik birliklar asosida assotsiativ maydonni aniqlash.

Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qahhorning “O‘jar” hikoyasi matni tanlab olindi.

Natija va muhokama.

Tahlil jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

Hikoyada ichki nutq qahramonning ruhiy tangligi va ichki ziddiyatini ifodalovchi asosiy vosita ekanligi aniqlandi. Qisqa va keskin gaplar ruhiy zo'riqishni aks ettiradi.

“O‘jar”, “qaysarlik”, “gapida turish”, “qattiqqo‘llik” kabi birliklar markaziy semantik maydonni tashkil etib, o'quvchi ongida muayyan assotsiativ reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Qutbiddinov va Zargarov nutqida kuzatiladigan pallasimonlik, fikrlarning izchilligi yo'qligi ularning tafakkur modelidagi sathilikni ko'rsatadi.

Ota-ona va bola muloqotida imperativ konstruksiyalar, murosasizlik va emotsional komponentlar ustunlik qilishi aniqlandi. Suyarning nutqi qisqa, aniq va mantiqiy dalillangan bo'lib, bolalar tafakkurining kognitiv xususiyatlarini namoyon etadi.

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan ichki nutq inson tafakkurining eng muhim shakllaridan biri sanaladi. “O‘jar” hikoyasida qahramonning ichki kechinmalari ko'pincha monologik strukturalar orqali beriladi. Qahramonning qat'iyiligi, o'z fikrida turib olishi va ichki kurashi psixologik jihatdan asoslab beriladi.

Ichki nutqda qisqa, keskin gaplar ustunlik qiladi. Bu holat qahramonning ruhiy tangligini va ichki ziddiyatini ifodalovchi muhim psixolingvistik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mental leksikon shaxs ongida so'zlar va tushunchalarning qanday saqlanishi va faollashishini tavsiflaydi. Hikoyada “o'jar”, “qaysarlik”, “gapida turish”, “qattiqqo‘llik” kabi leksik birliklar markaziy semantik maydonni hosil qiladi.

Bu soʻzlar oʻquvchi ongida muayyan assotsiativ reaksiyalarni uygʻotadi: qatʼiyat, ijtimoiy bosim, nizoli vaziyatlar, ichki qarama-qarshilik. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bu jarayonlar oʻquvchining matnni emotsional idrok etishini kuchaytiradi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida ekspressivlik muhim uslubiy belgi hisoblanadi. "Oʻjar" hikoyasida kinoya, istehzo va dialoglarning tabiiyligi qahramonlar psixikasini ochishda muhim rol oʻynaydi.

Ekspressiv vositalar orqali oʻquvchi nafaqat voqeani kuzatadi, balki qahramon ruhiy holatini "his qiladi". Bu esa psixolingvistikaning emotsional idrok masalalari bilan bevosita bogʻliqdir.

Oʻquvchi ongida yuzaga keladigan kognitiv jarayonlar. Badiiy matnni oʻqish jarayonida oʻquvchi ongida bir qator kognitiv jarayonlar sodir boʻladi: tushunish, baholash, taqqoslash, xulosa chiqarish. "Oʻjar" hikoyasida syujetning bosqichma-bosqich rivojlanishi oʻquvchini faol fikrlashga undaydi.

Qahramonning xatti-harakatlarini baholash, uning xatti-harakatlariga nisbatan ichki munosabat bildirish jarayoni psixolingvistik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Qahhorning "Oʻjar" hikoyasi oʻzbek badiiy nasrida psixologik chuqurligi bilan ajralib turadi. Hikoya matnida ichki nutq, ekspressiv birliklar, assotsiativ maydonlar va kognitiv jarayonlar uygʻunlashgan holda namoyon boʻladi.

Psixolingvistik tahlil shuni koʻrsatadiki, badiiy matn oʻquvchi ongida nafaqat maʼno, balki kuchli emotsional va psixologik taʼsir uygʻotadi. Bu esa Abdulla Qahhor ijodini psixolingvistika nuqtayi nazaridan oʻrganish istiqbolli yoʻnalish ekanini tasdiqlaydi.

Uning "Oʻjar" hikoyasi kundalik hayotdagi oddiy voqelikni tasvirlash orqali inson ongida roʻy beradigan murakkab psixologik jarayonlarni fosh etadi. Hozirgi zamon tilshunosligida antropotsentrik paradigma - til sohibi soʻzlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bogʻliq yoʻnalish yetakchi oʻrinda turadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika kabi yoʻnalishlarda shaxs omili tadqiqot ob'ektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarining yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq oʻrganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bogʻliqdir. "Oʻjar" hikoyasi aynan shu nuqtai nazardan qimmatli material hisoblanadi.

Psixolingvistik tahlilning asosiy vazifasi til birliklarining inson ongida qanday aks etishi va ularning nutq faoliyatida qanday namoyon boʻlishini oʻrganishdan iborat. "Oʻjar" hikoyasida bu jihatlar alohida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Hikoyaning bosh qahramonlari Qutbiddinov va Zargarovning nutqiy faoliyati ularning ichki dunyosi, tafakkur uslubi va jamiyatdagi oʻrni haqida qimmatli ma'lumot beradi. Qutbiddinovning: "Bolaning miyasi shunday miyaki, chunonchi... bizning moliya tili bilan aytganda, alohida paragraf!" degan nutqi uning kasbiy faoliyati va tafakkur uslubini ochib beradi.

Nutqning psixolingvistik tahlili shuni koʻrsatadiki, Qutbiddinov va Zargarovning muloqotida til vositasida nafaqat ma'lumot almashinadi, balki ijtimoiy statusni mustahkamlash, oʻz ustunligini koʻrsatish kabi maqsadlar ham amalga oshiriladi. Bu jihat antroposentrik paradigmaning asosiy tamoyillari bilan bogʻliq boʻlib, til sohibi - soʻzlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan izohlanadi.

Qahramonlarning nutqida kuzatiladigan pallasimonlik, mavzuning doimiy oʻzgarishi, fikrlarning izchilligining yoʻqligi ularning tafakkuridagi sathilikni koʻrsatadi. Bu esa psixolingvistikaning til va tafakkur oʻzaro bogʻliqligi haqidagi asosiy qarashlarini tasdiqlaydi.

Hikoyada til va tafakkur oʻrtasidagi munosabat bir qancha qizigarli holatlarda namoyon boʻladi. Qutbiddinovning oʻgʻli Suyar haqidagi: "Albatta, otasini suyar-da, a,

o'glim? Bizning o'g'il ko'p yaxshi-da: biron bilan urishmaydi, papiros chekmaydi, onasidan otasini yaxshi ko'radi, shaxmat o'ynamaydi..." degan nutqi uning tafakkuridagi qarama-qarshiliklarni fosh etadi.

Bu dialogni kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilganimizda, Qutbiddinovning so'zlarida uning bolalar tarbiyasi haqidagi chalg'ituvchi tafakkur modeli aks etadi. U bir vaqtning o'zida bolani maqtaydi va qoralaydi, bu esa uning tafakkuridagi mantiqiy xatolarni ko'rsatadi.

Antropotsentrik paradigma til tizimini inson tafakkuri markazida o'rganishni nazarda tutadi. Hikoyada bu jihat Qutbiddinov va Zargarovning "hozirgi tarbiya" haqidagi munozaralarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning fikrlash uslubi va nutq xususiyatlari orqali ularning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va tafakkur stereotiplari ochib beriladi.

Hikoyada o'zbek milliy mentalitetining nutqga ta'siri bir qator jihatlarida namoyon bo'ladi. Qutbiddinovning Zargarovga murojaatida: "Lekin birodar... Qani, ichaylik! Auf... Lekin, birodar, har yomonning bir «ammo»si bo'lishi kerak, har yaxshining bir «lekin»i. degan qism o'zbek tiliga xos murojaat uslubini ko'rsatadi.

Milliy mentalitetning nutq faoliyatiga ta'siri lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biridir. "O'jar" hikoyasida bu jihatlar alohida yaqqol ifodalangan.

Hikoyaning markaziy motivlaridan biri bolalar va ota-onalar o'rtasidagi muloqotdir. Suyar va Qutbiddinov o'rtasidagi dialoglar bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlarini o'rganish uchun boy material hisoblanadi. Suyarning: "Ikkovi bitta odam-ku!" degan qisqa va aniq javobi bolalar nutqining xususiyatlarini aks ettiradi.

Bolalar nutqining psixolingvistik jihatdan o'rganilishi, ularning kognitiv rivojlanishi, tafakkur modeli va lisoniy qobiliyatlarini tushunish imkonini beradi. Suyarning o'z fikrini dalillar bilan himoya qilishi (kitobni olib kelishi) bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini ko'rsatadi.

Ota-onalarning bolalar bilan muloqotida kuzatiladigan psixolingvistik xususiyatlar:

Nutqdagi imperativ konstruksiyalarning ko'p qo'llanilishi

Murosasizlik va o'z fikrini majburiyat sifatida qabul qildirish istagi.

Bolalarning lisoniy imkoniyatlarini yetarlicha baholamaslik. Nutqda emotsional komponentlarning ustunligi

Abdulla Qahhorning "O'jar" hikoyasi psixolingvistik tahlil uchun boy material hisoblanadi. Hikoya orqali til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabat, milliy mentalitetning nutqga ta'siri, avlodlar o'rtasidagi muloqotning psixolingvistik xususiyatlari kabi muhim masalalarini o'rganish mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, hikoya qahramonlarining nutq faoliyati ularning ichki dunyosi, tafakkur modeli va jamiyatdagi o'rnini ochib beradi. Qutbiddinov va Zargarovning nutqida kuzatiladigan pallasimonlik, mavzuning doimiy o'zgarishi, fikrlarning izchilligining yo'qligi ularning tafakkuridagi sathilikni ko'rsatadi.

Bolalar va ota-onalar o'rtasidagi muloqotning psixolingvistik tahlili esa, ota-onalarning bolalar bilan muloqotida nutqdagi imperativ konstruksiyalarning ko'p qo'llanilishi, murosasizlik va o'z fikrini majburiyat sifatida qabul qildirish istagi kabi xususiyatlar borligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Abdulla Qahhorning "O'jar" hikoyasi psixolingvistik jihatdan o'zbek adabiyotining qimmatli durdonasi hisoblanadi va uning batafsilroq o'rganilishi tilshunoslik fanining rivojiga muhim hissa qo'shadi.

Xulosa.

1. Abdulla Qahhorning "O'jar" hikoyasi til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaqqol namoyon etuvchi badiiy matn sifatida psixolingvistik tahlil uchun boy material

hisoblanadi. Hikoyada qahramonlar nutqi orqali ularning tafakkur modeli, dunyoqarashi va ichki ziddiyatlari ochib beriladi.

2.Hikoyada ichki nutq, ekspressiv birliklar, kinoya va dialogik strukturalar qahramonlarning ruhiy holatini aks ettiruvchi muhim psixolingvistik vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Qisqa va keskin gaplar, pallasimon fikrlash hamda mavzuning tez-tez almashishi tafakkurdagi izchillik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi.

3.Matnda shakllangan semantik maydon ("o'jar", "qaysarlik", "gapida turish", "qattiqqo'llik") o'quvchi ongida muayyan assotsiativ reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Bu esa mental leksikon va emotsional idrok jarayonlarining badiiy matnni anglashdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

4."O'jar" hikoyasi antropotsentrik paradigma nuqtayi nazaridan tilni shaxs omili bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Qahramonlar nutqida milliy mentalitet, ijtimoiy mavqe, tarbiya modeli va avlodlararo muloqotning psixolingvistik xususiyatlari mujassam bo'lib, bu asarni zamonaviy psixolingvistika, lingvopragmatika va kognitiv tilshunoslik doirasida tadqiq etish istiqbolli ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdulla Qahhor. Anor hikoyalar to'plami. – Toshkent, 2022. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- 2.Mamajonov M. Muloqotning psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. – Farg'ona, 2025.
- 3.Usmonova Sh. (2014). Psixolingvistika. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
4. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2000.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б.5
6. Хожалиев И. Психоллингвистиканинг фан сифатида шаклланишига доир // ФарДУ. Илмий хабарлар. 2017. – №5. – Б.71-72.
7. Levelt, W. J. M. (1989). Speaking: From Intention to Articulation. MIT Press.
8. Aitchison, J. (2012). Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. Wiley-Blackwell.